

OTA-ONASIZ YETIM BOLALARNI IJTIMOIY QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA OLIB BORILGAN CHORA-TADBIRLAR

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Psixologiya yo'nalishi talabasi
Qurbanova Movluda Axmadali qizi*

Annotatsiya: Bugungi kunga kelib yetim bolalarni ijtimoiy-pedagogik ijtimoiylashtirish tizimini rivojlantirish muhim masala bo'lib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, shu kabi masalalarни hal qilish bo'yicha bir qancha vazifalar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqot jarayonida ota-onasiz yetim bolalarning ijtimoiy-axloqiy himoyasi borasida fikrlar bayon etildi.

Kalit so'zlar: Yetim bolalar, qonuniy vakil, shaxs, ijtomoiy himoya

Bugungi kunda jamiyatning asosiy vazifasi yetim bolalar va ota-onsa qaramog'isiz qolgan bolalarni to'laqonli sog'lom va barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish, ularga keyinchalik ijtimoiy moslanishni osonlashtiradigan kasbiy va turli xil hayotiy ko'nikmalarni singdirishdir. Chunki har qanday davlatda, har qanday jamiyatda ham ota-onasi qaramog'isiz bolalar bo'lgan va bugungi kunda ham bunday holatlar uchrab turibdi. Bu holatda jamiyat va davlat bu bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishi mas'uliyatini o'z bo'yniga oladi.

Bolalik insonning ruhiy bardoshligi, hayotga qiziqishini, maqsadga intiluvchanligini, ta'minlovchi asosiy xislatlarning shakllanish davridir. Bunday vaqtarda yaqinlaridan ajralib qolish bolaning keyingi taqdirini belgilab berar ekan. Ota-onasidan ayrilish va umuman yaqinlarini yo'qotish ularning rivojlanishida katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga yetimlikning kelib chiqish sabablarini aytadigan bo'lsak, bu turli fan sohalari (tibbiyot, psixologiya, ijtimoiy pedagogika va boshqalar) olimlari shug'ullanayotgan ko'p tomonli muammodir. Biroq asosiy 3 ta sababni ajratib ko'rsatsak bo'ladi:

1. Ota-onalarning (odatda onalarning) o'z voyaga yetmagan bolasidan voz kechish, asosan, go'daklik davridagi bolasidan
2. Uning ota-onasidan ota-onalik huquqini olib qo'ygandan so'ng bolani oiladan majburan ajratib olish
3. Ota-onalarning vafoti.

Ota-onalar qaramog'isiz qolgan bolalarga esa ota-onalari:

- Vafot etgan;
- Ota-onalik huquqidan mahrum bo'lgan;
- Bedarak yo'qolgan;
- Muomalaga layoqatsiz;
- Axloq tuzatish koloniylarida jazo o'tayotgan;
- Jinoyat sodir etishda ayblanib, xibsda bo'lgan;
- Bola tarbiyasidan bo'yin tovlayotgan;
- Bola vaqtincha joylashtirilgan shifo, ijtimoiy maskanlardan uni olib ketmayotgan bolalar kiradi.

Ularni boqish,ta'lim berish,himoyalash uchun qonun bilan belgilangan vasiylik shakllari mavjud.Yetim bolalarga vasiylik qilish ikki yo'l bilan amalga oshiriladi. Bolalikka olish yoki davlat qaramog'iga topshirish.Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda ehtiyojmand oilalar farzandlari, jumladan, chin yetim,nogironligi bo'lgan va davolanishga muhtoj bolalarga alohida mehr-muruvvat ko'rsatish,ularning manfaatini himoya qilishga katta e'tibor qaratilmoqda.So'nggi o'n yilda mehribonlik uylari va bolalar shaharchalari bitiruvchilarining 51 foiziga uy-joy ajratilgani,mehribonlik uylaridan chiqqan yigit-qizlarning 64 foizi ish bilan ta'minlanganligi fikrimizning yaqqol tasdig'idir.

Shuningdek,yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Unga ko'ra:

-Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar kollej,akademik litsey, texnikum va oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan davrida mahalliy hokimliklar tomonidan ajratilgan uy-joylarda kommunal xizmatlarning me'yoriy ko'rsatkichlari bo'yicha foydanilgan communal xizmatlar uchun to'lovlarning 50 foizi tegishli tuman va shahar mahalliy budjetlarining qo'shimcha manbalari hisobidan kompensatsiya qilinishi belgilandi.

2021-yil 1-sentabrdan boshlab:

-yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ular texnikum,kollej,akademik litsey yoki oliy ta'lim muassasasida o'qiyotgan davrida har o'quv yilida bir marotaba o'quv,ilmiy va badiiy adabiyotlar (kitoblar) xarid qilish xarajatlari uchun bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari miqdorida subsidiya ajratiladi;

-o'quv-tarbiya muassasalarini tarbiyalanuvchilarining nodavlat ta'lim tashkilotlarining xorijiy tillar, oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish uchun imtixon topshiriladigan 2 ta fan, oshpazlik, qandolatchilik, sartaroshlik, kompyuter savodxonligi va o'zlarining qiziqishlaridan kelib chiqqan holda boshqa mos yo'naliishlar bo'yicha kurslarida o'qish xarajatlari Davlat budjeti mablag'lari hisobidan bir yilda bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravarigacha miqdorda kompensatsiya qilinadi;

-yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar ro'yxati asosida ularning yirik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida har yili amaliyat o'tashni tashkil etiladi;

-texnikum, kollej yoki oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirmagan hamda kasb egallash istagidagi yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning o'z tizimidagi "Ishga marhamat" monomarkazlari, kasb-hunarga o'qitish markazlari va maskanlarida kasb-hunarga o'qitilishi yo'lga qo'yiladi.

Mehribonlik uylaridagi bolalarni oilaga yaqin muhitda tarbiyash,bilim va ma'nnaviyatli,vatanparvar insonlar etib voyaga yetkazish bugun har qachongidan ham muhimroq ekanligidan kelib chiqib,ularni axborot texnologiyalari,xorijiy tillar,kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish,sport bilan shug'ullanishlarini tashkil etish bo'yicha yangi metodikalar ishlab chiqilgan holda,14 yoshdan yuqori o'g'il-qizlarni eng talab yuqori kasblarga o'rgatish

yo'lga qo'yiladigan bo'ldi.Prezidentimiz raisligida nogironligi bo'lgan,ota-onas qaramog'idan mahrum va yetim bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kengaytirish hamda ijtimoiy nafaqalarni takomillashtirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan vidioselektr yig'ilishida yoshlarning ta'lim-tarbiyasi,uy va ish bilan ta'minlash darajasi tahlil qilinib,bu yo'nalishda aniq vazifalar belgilab berildi.Yig'ilishda ta'kidlanganidek,bugungi kunda mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining 17 foizi chin yetimlar,qolgan 83 foizi esa ota-onasi yoki yaqin qarindoshlari voz kechgan bolalar hisoblanadi.Bunday oilalarga moddiy yordam berish orqali aksariyat bolalarni o'z oilasi bag'riga qaytarish mumkin.

Shu bilan birga,chet el tajribasini o'rganish va qisman mahalliy ijtimoiy amaliyotga joriy etish mahalliy yetim bolalarga oilada yashash tajribasini to'plash va jamiyatda muvaffaqiyatli moslashish imkoniyatini beradi.Ota-onas qaramog'isiz qolgan bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy ishlarning jahon tajribasi mamlakatimizdagagi ijtimoiy yetimlikning oldini olish va minimallashtirish uchun ichki birlashgan davlat standartlarini,ijtimoiy xavfli vaziyatda bo'lgan oilalar bilan ishslashning inovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lishi mumkin.

Dunyo tajribasiga ko'ra-yetim bolalar va ota-onas qaramog'isiz qolgan bolalar,asosan,tezkor ravishda har bir bolaga oila topilguniga qadar vaqtinchalik patronat uylari,maktab-internetlarga:bolalar mehribonlik uylari,bolalar (go'daklik) uylari,umumiy maktab-internetlar,nogiron bolalar uchun maktab-internetlarga joylashtirilib,jamiyatdan uzilmagan holda bilim va tarbiyaga yo'naltiriladilar.Ota-onas qaramog'isiz qolgan bolalarni oilalarga jalb qilish,oiladagi tarbiya va uning samaradorligini va bolalarni ijtimoiy himoya qilish muassasalari faoliyatini baholash o'ta muhimdir.Bunda yetimlar va ota-onas qaramog'isiz qolgan bolalar hayotidagi xorijiy tajriba ichki ijtimoiy amaliyotga tatbiq etiladi,aholini ichki ijtimoiy himoya qilish tizimining imkoniyatlari va chekllovleri hisobga olinib,shuningdek yetimlar va ota-onas qaramog'isiz qolgan bolalar oilalarga muvaffaqiyatli joylashtiriladi.Bolalar bilan ishslash ijtimoiy muassasalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan yetim bolalar va ota-onas qaramog'isiz qolgan bolalar hayotini jamiyatga moslashtirish asosida murakkab vaziyatga tushgan voyaga yetmaganlar uchun maxsus modelini ishlab chiqish ham jamiyatimiz oldida turgan muhum vazifalardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Арипова А.Хуқуқбузарликлар профилактикаси ва жамият хавфсизлигини таъминлашда фуқаролик қонунчилиги концепцияси асосида фаолият.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori.
3. "Orphans", UNICEF,<https://www.unicef.org/media/orphans>